Men tokarlik kasbini egallamoqchiman.

Кисть правой руки в конфигурации «х» тыльной стороной пальца скользит по ребру левого указательного пальца влево-вправо.

Я хочу овладеть профессией токаря.



52. Zarar (ziyon)

Убыток (ущерб)

Loss (damage)

«ilgak» holatidagi kaft bilakda, bukilib ko'krakdan tepaga yo'naltiriladi.

Masalaning bunday hal qilinishi — ishga zarar keltirdi.

Кисть руки в конфигурации «крючок», сгибаясь в запястье, скользит по груди вверх.

Такое решение вопроса нанесло ущерб делу.



53. Bo'shamoq

Уволиться

To leave the service

Kaftlar bilaklarda bukiladi, o'rta barmoqlarning uchlari bir vaqtda ko'krakdan pastga yo'naltiriladi.

O'z xohishim bilan ishdan bo'shadim.

Кисти рук в конфигурации «средний палец», сгибаясь в запястье, одновременно скользят по груди вниз.

Я уволился с работы по собственному желанию.



54. Farrosh

Уборщица

Charwoman

«А» holatidagi kaftlar bir vaqtda aylanasiimon yo'naltiriladi.

Magazinga farrosh kerak edi.

Кисти рук в конфигурации «а» одновременно движутся по кругу.

В магазин требуется уборщица.



55. Fabrika (mexanizm, stanok)

Фабрика (механизм, станок)

Factory (mechanism, machine tool)

Kaftlar «500» holatida bilaklarda pastga burilib barmoqlar navbatma-navbat bir-biriga tekkiziladi.

Shokolad chiqazadigan fabrika.

Qadimgi soat mexanizmi murakkab edi.

Кисти рук в конфигурации «500» поворачиваясь в запястье вниз, соприкасаются поочередно косточками пальцев.

Фабрика по производству шоколада.
Механизм старинных часов был сложным.



56. Fotograf (rasm oluvchi, suratchi)

Фотограф

Photographer

«5» holatidagi o'ng kaftning bilagi chap kaftga qo'yiladi va barmoqlari «500» holatiga keltiriladi, kaftlar keskin o'zimiz tomon yo'naltiriladi.

Shaharda mashhur fotografning ko'rgazmasi o'tkazildi.

Кисть правой руки в конфигурации «5» запястьем приложить к левой кисти, затем руки рывком сдвинуть к себе, поджимая пальцы правой руки в конфигурации «500».

В городе проводилась выставка известного фотографа.



57. Xo'jayin (xo'jalik)

Хозяин (хозяйство)

Owner (farm)

«X» holatidagi kaft kichik aylana shaklida yo'naltiriladi.

Eshikni uy xo'jayini ochdi.

Кисть руки в конфигурации «X» движется по небольшому кругу.

Дверь открыл хозяин дома.



58. Rassom

Художник

Painter, artist

«Ilgak» holatidagi kaft ko'kragimiz oldida o'ngga-chapga yo'naltirilib, pastga tushiriladi.

Yosh rassom opasining rasmini chizdi.

Кисть руки в конфигурации «крючок», раскачиваясь вправо-влево, опускается вниз.

Молодой художник писал портрет сестры.



59. Iqtisod
Экономика
Economics, economy

«e» holatidagi kaft kichik aylana shaklida yo'naltiriladi.

Mamlakatda iqtisodning umumiy o'sishi kuzatilyapti.

Кисть руки в конфигурации «э» движется по небольшому кругу.

Наблюдается общий рост экономики страны.



60. Tejash (tejamkorlik)
Экономия
Saving

Ko'rsatkich barmoq dahandan o'ngdan-chapga yo'naltirilib bilak bukiladi.

Vaqtni tejash kerak.

Указательный палец движется по подбородку справа-налево, разворачиваясь в запястье.

Надо экономить время.



61. Foyda
Выгода
Advantage

«0» holatidagi kaft ko'krakning chap tomonidan pastga yo'naltiriladi.
Bu ishning unga foydasi yo'q edi.

Кисть руки в конфигурации «0» скользит по левой стороне груди вниз.
Это дело было ему не выгодным.



62. Sof foyda
Прибыль
Profit(s)

«5» holatidagi kaft ko'krakning chap tomoniga yo'naltirilib pastga tushiriladi va «j» holatiga keltiriladi.

Yangi mahsulotning sof foydasi katta edi.

Кисть руки в конфигурации «5» движется к левой стороне груди и, опускаясь вниз, собирается в конфигурацию «ж».

Прибыль от новой продукции была большой.



63. Tadbirkorlik
Бизнес
Business

«Pub» imo-ishorasi ko'rsatilib o'ng ko'rsatkich barmoq chap ko'rsatkich barmog'ining atrofida yo'naltirladi.
Bu foydasi bor tadbirkorlik edi.

Показывается жест «деньги», затем правый указательный палец движется вокруг левого указательного пальца.

Это был выгодный бизнес.



64. Kompyuter

Компьютер

Computer

Kaftlarning barmoqlari galma-gal qimir-lab bir vaqtda pastga tushiriladi.

Kompyuterdagi axborotdan foydalanish zarur.

Руки, перебирая пальцами, одновременно опускаются вниз.

Надо пользоваться компьютерной информацией.



65. Mutaxassis

Специалист

Specialist, expert

«g'uncha» holatidagi kaftlarning ko'rsatkich va o'rta barmoqlari oldinga yo'naltirilib, pastga tushiriladi.

Quloq, tomoq, burun kasalliklarining mutaxassisi LOR deb ataladi.

Кисты рук в конфигурации «е» чуть приподнимаясь, выбрасывают указательный и средний пальцы и опускаются вниз.

Специалист по болезням уха, горла, носа называется ЛОР.



66. Reja

План

Plan

«L» holatidagi kaftning barmoq uchlari chap kaftga qo'yiladi, biroz ko'tariladi va o'zimiz tomon burilib, yana chap kaftga qo'yiladi.

Bir yillik ish rejamni tuzib qo'y-dim.

Кисть правой руки в конфигурации «Л» кончиками пальцев поставить поперек левой ладони, затем, приподняв и развернув ладонью к себе, поставить вдоль левой ладони.

Я составил годовой план работы.



67. Mehnat

Труд

Labor, work

«ch» holatidagi kaftlarning o'ng kafti chap kaftning ustida bo'lib, ko'krakning chap tomoxiidan bir vaqtda pastga yo'naltiriladi. Harakat takrorlanadi.

Men mehnat shartnomasini imzoladim.

Кисти рук в конфигурации «ч», правая кисть над левой, подносятся к левой стороне груди и одновременно скользят по ней вниз. Движение повторить.

Я подписал трудовой договор.



68. Birlashma (uyushma)

Объединение (корпорация)

Union (corporation)

**«5» holatidagi kaftlar bir vaqtda markazga yo'naltirilib, barmoqlari «j» holatiga keltirila-di.
Biz rassomlar uyushmasida uchrashib qoldik.**

**Кисти рук в конфигурации «5» одновременно движутся к центру, при этом пальцы собираются в конфигурацию «ж».
Мы встретились в объединении художников.**



**69. Tashkilot (tashkilotchi, tashkil qilish, tashkiliy)
Организация (организатор, организовать, организационный)
Organization (organizer, to organize, organizing)**

Kaftlarning ko'rsatkich barmoqlarining uchlari birlashib, bilaklar bukilib, kaftlar bir vaqtda yoysimon bo'lib o'zimizdan oldinga yo'naltiriladi.

Qurilish tashkilotiga ishga kirmoqchiman.

Bu ajoyib kechaning tashkilotchilarining nomini ayting.

Кисти рук в конфигурации «указательный палец» соединены кончиками пальцев. Руки, сгибаясь в запястьях, одновременно движутся от себя по полукругу.

Я хочу поступить на работу в строительную организацию.

Назовите организаторов этого прекрасного вечера.



**70. Bo'lim (sex)
Отдел (цех)
Department (shop)**

«Alohida» imo-ishorasi ko'rsatiladi.

Ijtimoiy ta'minot bo'limida odam ko'p edi.

Duradgorlar sexi yaxshi natijalarga erishdi.

Показывается жест «раздельно».

В отделе социального обеспечения было много народа.

Рабочие столярного цеха достигли хороших результатов.



71. Taklif qilmoq

Предложить

To offer, to suggest, to propose

«v» holatidagi kaftlar pastga qaratiladi, keyin bilaklar bir vaqtda burilib kaftlar tepaga qaratiladi va xiyol oldinga yo'naltiriladi.

Ishni bir haftada tugatilishini taklif qildik.

Кисти рук в конфигурации «в», ладонями обращены вниз. Руки одновременно развернуть в запястьях к себе и от себя, поворачивая ладонями вверх и слегка вынося их вперед.

Мы предложили закончить работу в недельный срок.



72. Bo'shatish

Уволить

To dismiss, to discharge

Kaftlar "a" holatida. O'ng kaft oldinga yo'naltirilib, bilagi chap kaftga tekkizilib, ko'rsatkich va o'rta barmoqlari yoziladi.

Jiddiy xatolari sababli bir necha xodim ishdan bo'shatildi.

Кисти рук в конфигурации «а». Правая рука движется вперед от себя, ударяется запястьем об левую кисть, выбрасывая при этом указательный и средний пальцы.

Из-за серьезных ошибок несколько сотрудников было уволено.



73. Sovuqqonlik

Халатность
Negligence

«V» holatidagi kaftlar bilaklarda bukilib, galma-gal pastga tushiriladi.

Ishga sovuqqonlik bilan yondoshish mum-kin emas.

Кисти рук в конфигурации «в», сгибаясь в запястье, попеременно опускаются вниз.

К работе нельзя относиться халатно.



74. Tikuvchi

Швея
Seamstress

«v» holatidagi kaftlarning o'ng kafti chap kaftning oldida bo'lib, bir vaqtda oldinga yo'naltiriladi.

Uchinchi toifali tikuvchi.

Кисти рук в конфигурации «в». Правая рука перед левой одновременно движутся вперед.

Швея 3-го разряда.



75. Haydovchi

Шофер
Driver, chauffeur

«a» holatidagi kaftlar mashina rulini ushlayotgandek bir vaqtda aylanasiimon yo'naltiriladi.

Haydovchilar kurslariga o'qishga e'lon berildi.

Кисти рук в конфигурации «а», будто держат руль, одновременно движутся по кругу.

Был объявлен набор на курсы шоферов.



76. Staj

Стаж

Record of service, length of service

«Xizmat qilish» va «yillar» imo-ishoralari ko'rsatiladi.

Uning ish staji katta edi.

Показываются жесты «служить» и «лет».

У него был большой стаж работы.

77. Intizom (tartib)

Дисциплина

Discipline



“Qattiqqo'l” va “tartib” imo-ishoralari ko'rsatiladi.

Mehnat intizomi.

Показываются жесты «строгий» и «порядок».

Трудовая дисциплина.

12

MAVZU

Tibbiyot

Медицина



1. Abort
Аборт
Abortion

«F» holatidagi kaft barmoqlarining uchi chap kaftdan pastga yo'naltiriladi.
Ayolga abort qilishdi.

Кисть правой руки в конфигурации «ф»
кончиками пальцев скользит по левой
ладони вниз.

Женщине был сделан аборт.



2. Alkogol (ichkilikbozlik, ichkilikboz)
Алкоголь (алкоголизм, алкоголик)
Alcohol (alcoholism, alcoholic)

Pastki dahanni chertish.
Alkogol - sog'lik uchun zarardir.

Щелчок по нижней части челюсти.
Алкоголь вреден для здоровья.



3. Analiz (kon topshirish)
Анализ
Analysis

O'n kaftning katta va ko'rsatkich barmoqlari
birlashtirilib chap kaftning nomsiz barmog'iga
tekkiziladi va tezda tepaga yo'naltiriladi.
Qon analizining javobi tezda tayyor bo'ldi.

Кисть правой руки в конфигурации
«капля». Кончиком пальца коснуться

безымянного пальца левой руки и быстро поднять вверх.

Больному был сделан экстренный анализ крови.



4. Angina (tomoq og'rig'i)

Ангина

Quinsy

**Katta va ko'rsatkich barmoqlar bilan tomoq ushlanadi.
Anginada tomoq og'riydi.**

**Большим и указательным пальцем
обхватить горло.**

При ангине болит горло.



5. Dorixona

Аптека

Chemist's shop, drugstore

**«Dori» va «muassasa» imo-ishoralari ko'rsatiladi.
Dorixona tunda ham ishlaydi.**

**Показываются жесты «лекарство» и
«заведение»**

Аптека ночью дежурит.



6. Homiladorlik **Беременность** **Pregnancy**

Kaftlar «5» holatida. O'ng kaft chap kaftning orqa tomoniga qo'yilib, qorindan oldinga yo'naltiriladi.

Homilador ayol zo'rg'a yurar edi.

Кисти рук в конфигурации «5». Правую ладонь положить на тыльную сторону левой кисти. Руки движутся от живота вперед. Она тяжело переносила беременность.



7. Quturish, tentaklik (aqldan ozish) **Бешенство (безумие, сумасшествие)** **Hydrophobia, madness**

Ko'rsatkich barmoq peshana yonida kichik aylana holatida harakatlanadi.

Quturgan it.
Tentaklik qiyofasi.

Aqldan ozgandek kulyapti.

Указательный палец подносится ко лбу и делает небольшие круговые движения.

Бешеная собака.

Безумный вид.

Хохочет как сумасшедшая.



8. Shifoxona **Больница** **Hospital**

«Tibbiyot» va «muassasa» imo-ishoralari ko'rsatiladi.

Shifoxona yaxshi jihozlangan edi.

Показываются жесты «медицина» и «заведение».

Больница была хорошо оборудована.



9. Uyqusizlik

Бессонница

Insomnia

«Uxlash» va «qilolmayman» imo-ishoralari ko'rsatiladi.

Bemor uyqusizlikdan qiynalyap-ti.

Показываются жесты «спать» и «не могу».

Больной страдает бессонницей.



10. Nafas olish

Вдох (дышать)

Breath (to breathe, to inhale)

Kaft ko'krakka qo'yiladi, oldinga yo'naltirilib, yana ko'krakka qo'yiladi.

Chuqur nafas olish esingizdan chiqmasin.

Руку положить на грудь, затем отвести вперед и снова положить на грудь.

Не забудьте сделать глубокий вдох.



11. Shifokor

Врач
Doctor

«Tibbiyot» va «odam» imo-ishoralari ko'rsatiladi.

Tez yordam shifokori ukol qildi.

Показываются жесты «медицина» и «человек».

Врач «скорой помощи» сделал укол.



12. Chaqirish

Вызов
Call

O'ng kaft barmoqlarining uchi chap kaftga tekkizilib o'zimiz tomon yo'naltiriladi va kaft bukiladi.

Shifokorni uyga chaqirish.

Правая рука, коснувшись кончиками пальцев левой ладони, движется к себе, кисть при этом сгибается.

Вызов врача на дом.



13. Kar (karlik)

Глухой (глухота)
Deaf (deafness)

Ko'rsatkich barmoq quloqqa, lablarga tekkiziladi.

Kar bolalar uchun alifbo kitobi.

Указательный палец поднести к уху, затем к губам.

Азбука для глухих детей.



14. Bosim
Давление
Blood pressure

«S» holatidagi kaft chap qo'lning yelkadan pastroq joyini ushlaydi.
Bemorning bosimi baland.

Правой кистью в конфигурации «с»
обхватить предплечье левой руки.
У больного высокое давление.



15. Tashxis
Диагноз
Diagnosis

«Tibbiyot» va «natija» imo-ishoralari ko'rsatiladi.
Shifokor kasalning tashxisini belgiladi.

Показываются жесты «медицина» и «результат».
Врач установил диагноз больного.



16. Kutish
Ждать
To wait for

«5» holatidagi kaftning katta barmog'i ikki marotaba ko'krakdan pastga yo'naltiriladi.
 Men navbatimni kutyapman.

Кисть правой руки в конфигурации «5» кончиком большого пальца дважды скользит по груди вниз.

Я жду своей очереди.



17. Yuqumli (yuqumli kasal)
Заразный (зараза)
Infectious (infection)

Ko'rsatkich barmoqlari birlashgan kaft-lar oldinga yo'naltiriladi.
 Bemorning kasalligi yuqumli edi.

Руки, сцепленные указательными пальцами, движутся вперед.

У больного было заразное заболевание.



18. Qabziyat
Запор
Constipation

«Hojatxona» va «qilol-mayman» imo-ishoralari ko'rsatiladi.
 Qabziyatdan qiynalmoq.

Показываются жесты «туалет» и «не могу».

Страдать запорами.



19. Sog'lik

Здоровье

Health

«5» holatidagi kaftlar ko'krakka qo'yiladi, bir vaqtda oldinga-chetga yo'nltirilib. «a» holatiga keltiriladi.

Sog'likni ehtiyot qilish zarur.

Кисти рук в конфигурации «5» положить на грудь, затем одновременно отвести вперед — в стороны, складывая пальцы в конфигурацию «а».

Необходимо беречь здоровье.



20. Qutulib olmoq

Избавиться (избавить, избавление)

To get rid of (to save (from), deliverance, rescue)

«A» holatidagi kaftlar bir vaqtda bilaklarda burilib biroz chetga yo'naltiriladi.

U haqoratlardan qutildi.

Кисти рук в конфигурации «а» одновременно, развернув в запястьях, слегка развести в стороны.

Он избавился от унижений.



21. Infarkt

Инфаркт

Infarction, heart attack

«O» holatidagi kaftlar barmoqlar uchi bilan ko'krakning chap tomonida birlashib, bir vaqtda o'ng kaft - tepaga, chap kaft - pastga barmoqlarini

yozib yo'naltiriladi.
Infarkt - yurak xastaligi.

Кисти рук в конфигурации «о», соединены кончиками пальцев у левой стороны груди. Руки одновременно развести: правую — вверх, левую — вниз, расправляя при этом пальцы.

Инфаркт — заболевание сердца.



22. Nogiron

Инвалид

Invalid

O'ng kaftning yon tomoni chap bilakdan, keyin chap kaftning yon tomoni o'ng bilakdan sirg'aladi. Nogiron bolalarning sport musobaqalari yakunlandi.

Правая кисть ребром скользит по левому запястью, затем поменять руки и повторить движение левой кистью у правого запястья.

Завершились спортивные соревнования среди детей-инвалидов.



23Yo'tal

Кашель

Cough

«500» holatidagi o'ng kaftning barmoqlarining uchi ko'krakning markaziga tekkizilib, ikki marotaba bilak buriladi va pastga yo'naltiriladi.

Xonadan qattiq yo'tal eshitildi.

Кисть правой руки в конфигурации «500» кончиками пальцев касается середины

груди и дважды, поворачиваясь в запястье, опускается.

Из комнаты слышался сильный кашель.



24. Теп

Кожа

Skin

«О» holatidagi kaft chap kaftning orqa tomoniga tekkizilib, bilak oldinga-orqaga yo'naltiriladi.

Qo'lining terisi qizargan edi.

Кисть правой руки в конфигурации «о» касается тыльной стороны левой руки и поворачивается в запястье от себя к себе.

Кожа её рук была покрасневшей.



25. Suyak

Кость

Bone

«X» holatidagi kaftning barmog'ining uchi tishlarga bir necha bor tekkiziladi.

Bemorning oyoq suyagi singan edi.

Кисть руки в конфигурации «х». Кончиком пальца несколько раз коснуться зубов.

У больного была сломана кость ноги.



26. Qon (qizil)

Кровь (красный)

Blood (red)

Ko'rsatkich barmoqning uchi ikki marotaba pastki labga tekkizilib yo'naltiriladi.

Bemor ko'p qon yo'qotdi.

**Кончик указательного пальца дважды
скользит по нижней губе вниз.
Больной потерял много крови.**



**27. Tomchi
Капля
Drop**

**«Tomchi» holatidagi kaft pastga yo'naltiriladi.
Bemor bir necha tomchi dorini qabul qildi.**

**Кисть руки в конфигурации «капля» слегка
опускается вниз.**

**Больной принял несколько капель
лекарства.**



**28. Dori (dori-darmon, tabletkalar)
Лекарство (медикаменты, таблетки)
Medicine (medicines, tablets)**

**«О» holatidagi kaft og'izga yonidan pastga
yo'naltiriladi.**

Bolaga yo'tal dori berildi.

**Кисть правой руки в конфигурации «о»
подносится ко рту и опускается вниз.**

Ребенку дали лекарство от кашля.



**29.0'рка
Легкие
Lungs**

**O'rta barmoq avval ko'krakning chap, keyin o'ng tomoniga tekkiziladi.
Bemorning o'pkasida suv bor edi.**

**Средним пальцем коснуться сначала левой стороны груди, затем правой.
У больного в легких была вода.**



**30. Massaj (massaj xodimi)
Массаж (массажист)
Massage (masseur)**

**«500» holatidagi kaftlar galma-gal oldinga yo'naltirilib, barmoqlar «a» holatiga keltiriladi.
Oyoqni massaj qilish zarur edi.**

**Кисти рук в конфигурации «500» попеременно движутся вперед, пальцы при этом собираются в конфигурацию «а».
Необходимо было массажировать ногу.**



31. Tibbiyot (sanitariya)
Медицина (санитария)
Medicine (sanitation)

Ko'rsatkich barmoq xoch shaklida chap yelkadan pastroqda yo'naltiriladi.

Tibbiyot xodimlarining yig'ilishi zalda o'tdi.

Указательным пальцем нарисовать крест на левом предплечье.

Собрание медицинских работников проходило в зале.



32. Giyohvandlik
Наркомания
Narcotism, drug addiction

Katta barmoq bir necha bor tirsakning ichki tomoniga tekkiziladi.

Giyohvandlarni davolash tibbiyot marka-zi.

Большим пальцем несколько раз коснуться внутренней стороны локтевого сгиба.

Медицинский центр для больных наркоманией.



33. Tumov (gripp)
Насморк (грипп)
A cold (flu)

«L» holatidagi kaft burun yoniga olib borilib yuqori lab yuzga tekkizmay yo'naltiriladi. Harakat 2 marotaba takrorlanadi.

Bola surunkali tumov edi.

Grippni oyoqda o'tkazish xavflidir.

Кисть руки в конфигурации «л» кончиками пальцев подносится носу и движется к верхней губе, не касаясь лица. Движение повторить.

У ребенка был хронический насморк.

Опасно переносить грипп на ногах.



34. Normal (norma)

Нормально (норма)

Normally (norm)

«О» holatidagi kaftlar biroz oldimizdan pastga yo'naltiriladi. Harakat takrorlanadi.

Bemorning harorati normal holatga kel-di.

Кисти рук в конфигурации «о» движутся от себя и одновременно немного вниз. Движение повторить.

У больного нормальная температура.



35. Yo'llanma

Направление

Direction

«E» holatidagi kaftlar bir vaqtda bilaklarda bukilib oldinga yo'naltiriladi.

Shifokor shifoxonaga yo'llanma berdi.

Кисти рук в конфигурации «э» одновременно согнуть в запястье вперед.

Врач дал направление в больницу.



36. Xavf, xatar (xavfli, xatarli)
Опасность (опасный)
Danger (dangerous)

Kaftlarning ko'rsatkich va o'rta barmoqlari katta barmoqlar orqasiga qo'yilib, oldinga yo'naltirilib barmoqlar keskin yoziladi.

Mevalarni yuvmasdan iste'mol qi-lish sog'lik uchun xavflidir.

Указательный и средний пальцы обеих рук завести за большие пальцы. Руки слегка движутся вперед, пальцы при этом резко выпрямляются.

Есть немые фрукты опасно для здоровья.




37. Operatsiya (jarroh)
Операция (хирург)
Operation (surgeon)

«P» holatidagi kaftlar bilaklarda bukilib galma-gal oldinga-orqaga yo'naltiriladi.

Operatsiyani tajribali jarroh o'tkazdi.

Кисти рук в конфигурации «п», сгибаясь в запястьях, поочередно движутся от себя к себе.

Операцию провел опытный хирург.



38. Zaharlanish (zahar)
Отравление (яд)
Poisoning (poison)

O'rta barmoq ko'rsatkich barmoqning ustiga qo'yilib, kaft og'iz yonidan chapga harakatlanib o'rta barmoq pastga yo'naltiriladi.

Bemor qo'ziqorindan zaharlan-gan.

Кисть руки в конфигурации «я» подносится ко рту и движется влево, в это время средний палец соскальзывает вниз.

Больной отравился грибами.



39. Ehtiyotlik bilan, avaylab

Осторожно

Carefully, cautiously

«Diqqat bilan» va «rahbar» imo-ishoralari ko'rsatiladi.

Bemorni ehtiyotlik bilan krovatga yotqizishdi.

Показываются жесты «внимательно» и «руководить».

Больного осторожно переложили на кровать.



40. Falaj (insult)

Паралич (инсульт)

Paralysis (insult)

«F» holatidagi kaft peshana yonidan pastga yo'naltiriladi.

Bemorning oyoq, qo'li falaj bo'lgan.

Кисть руки в конфигурации «ф» движется вдоль лица вниз.

У больного парализовало ногу и руку.



41. Singan joyi (sindirmoq)

Перелом (ломать)

Fracture (to break, to fracture)

«Ilgak» holatidagi kaftlar yonma-yon qo'yilib, bilaklar burilib tepaga qaratiladi.

Shifokor qo'Ining singan joyini aniqla-di.

Кисти рук в конфигурации «крючок» поставить рядом, движением в запястье развернуть руки вверх.

Врач определил место перелома руки.



42. Jigar

Печень

Liver

Barmoqlarning uchi qovurg'alarga tekkiziladi.

Gepatit - jigar kasalligi.

Кончиками пальцев коснуться подреберья.

Гепатит - это болезнь печени.



43. Umurtqa pog'onasi

Позвоночник

Spinal/vertebral column, backbone

Kaftning «x» holatidagi barmoqlari bukilib, yozilib tepadan pastga yo'naltiriladi.

Erkakning avariya da umurtqa pog'onasi shikastlangan.

Рука движется сверху вниз, палец сгибается и разгибается.

У мужчины при аварии был поврежден позвоночник.



44. Ichketish

Понос

Diarrhea

**«J» holatidagi kaftlar ikki tomonga yo'naltiriladi.
Ichketish bemorni hoisizlantirdi.**

Руки азвести в стороны, собрав пальцы в конфигурацию «ж».

Понос ослабил больного.



45. Buyrak

Почка

Kidney

**Ko'rsatkich barmoq belga tekkiziladi.
Buyrakda tosh topildi.**

Указательный жест.

В почке был обнаружен камень.



46. Shamollash (yallig'lanish)

Простуда (воспаление)

Cold (inflammation)

**«5» holatidagi kaftlar bir vaqtda bilaklarda burilib o'zimiz tomon silliq yo'naltiriladi.
Qishda men qattiq shamolladim.**

Кисти рук в конфигурации «5» плавно движутся к туловищу, разворачиваясь пальцами к себе.

Зимой я сильно простыл.



47. Rentgen

Рентген

X-ray photography, Roentgen

**Kaftlarning ko'rsatkich va jimjiloq barmoqlari yozilib, bir vaqtda silliq pastga tushiriladi.
Beraor rentgendan o'tdi.**

Кисти рук в конфигурации «ы» плавно и синхронно опустить вниз.

Больному был сделан рентген.



48. Retsept

Рецепт

Prescription, recipe

1.Imzo - «ch» holatidagi kaft avval o'ngga, keyin keskin oldimizga yo'naltiriladi.

2.«E» holatidagi o'ng kaft chap kaftning ustida o'zimiz tomon yo'naltiriladi.

Dori olish uchun retsept kerak.

Последовательно показываются жесты:

1.Подпись: кисть руки в конфигурации «ч» движется сначала вправо, затем резко к себе.

2.Кисть правой руки в конфигурации «э» движется над левой ладонью на себя.

Чтобы купить лекарство нужен рецепт.



49Yurak

Сердце

Heart

Ko'rsatkich barmoq yurakka yo'naltiriladi.

Tez chopganidan bolaning yuragida sanchiq paydo bo'ldi.

Указательный жест.

От быстрого бега у ребенка закололо сердце.



50. Ko'rik

Слепота

Blindness

«500» holatidagi kaft ko'z yonida chapdan-o'ngga yo'naltiriladi.

Bo'alar ko'r cholni yo'ldan o'tqazib qo'yishdi.

Кисть руки в конфигурации «500» движется влево-вправо на уровне глаз.

Дети помогли слепому старику перейти дорогу.



51. Zaif eshituvchi
Слабослышащий
Hard of hearing

Kaft tepadan-pastga yo'naltiriladi.
Zaif eshituvchi bolalar maktabida raqs ansambli
faoliyat ko'rsatayapti.

Рука движется вниз.

В школе для слабослышащих детей есть
свой танцевальный ансамбль.



52. Eshitish apparati
Слуховой аппарат
Hearing aid

«X» holatidagi kaft quloq orqasiga o'tkaziladi.
Eshitish apparatiga batareyka kerak.

Кисть руки в конфигурации «х» завести за
ухо.

Для слухового аппарата нужна батарейка.

53. Bo'g'inlar
Суставы
Anchylosis

«200» holatidagi kaftlar o'zaro ulanib bilaklarda bukilib tepaga-
pastga yo'naltiriladi.

Revmatizm kasalligida bo'g'inlar og'riydi.

Кисти рук в конфигурации «200»,
сцепленные между собой, сгибаясь в
запястье, движутся вверх-вниз.



При ревматизме болят суставы.



54. Azob (jafo, qiynash, azob chekish)

Страдание (мучение, терзание, угрызение)

Suffering (torture, torment)

Kaftlarning ko'rsatkich barmoqlarining uchi galma-gal ko'krakka tekkiziladi.

Bemor og'riqdan azob chekdi.

Кисти рук в конфигурации «указательный палец» попеременно касаются груди кончиками пальцев.

Больной страдал от боли.



55. Tana

Тело

Body

«Teri» imo-ishorasi ko'rsatilib, kaftlar tana bo'ylab pastga silliq yo'naltiriladi.

Tanasi sovuq edi.

Показывается жест «кожа», затем обе руки плавно опустить вниз вдоль туловища.

Тело было холодным.



56. Harorat Температура Temperature

1. Ko'rsatkich barmoq chap kaftdan tepaga yo'naltiriladi.
2. «F» holatidagi kaft chap qo'litiq tagiga qo'yiladi.
Hamshira bemorlarning tana haroratini oichadi.

1. Указательный палец скользит вверх по левой ладони.
 2. Кисть правой руки в конфигурации «ф» поместить под мышку левой руки.
Медсестра измерила температуру.
-
-



57. Chidamoq Терпеть To suffer

- «5» holatidagi kaft tarang holda ko'krakdan pastga yo'naltiriladi.
Qizcha tish og'rig'iga chidolmay shifokorga bordi.

- Кисть руки в конфигурации «5» кончиком большого пальца напряженно опускается по груди вниз.
Девочка, не вытерпев зубной боли, пошла к врачу.
-
-



58. Ukol Укол Injection

**«Uch» holatidagi o'ng kaft chap kaftga tushirilib, «ch» holatiga keltiriladi.
Ukoldan so'ng bemor uxlabqol-di.**

Правую кисть в конфигурации «три» опустить на левую ладонь, соединив пальцы в конфигурацию «ч».

После укола больной уснул.



59. Ro'yxat bo'limi, ro'yxatga olmoq (qayd qilish, ro'yxat qilish, yozib olmoq)

Регистратура (регистрировать, регистрация, запись, записать)

Registry (to register, registration, entry record, to make an appointment)

«J» holatidagi o'ng kaft chap kaftga qo'yilib, xiyol ko'tarilib, barmoqlar yoziladi va kaft kaftga qo'yiladi.

Bemor ro'yxat bo'limi yoniga keldi.

Shifokor qabuliga yozilish.

Кисть правой руки в конфигурации «ж» кончиками пальцев поставить на левую ладонь, затем руку приподнять, расправить пальцы и ударить ладонью по левой ладони.

Записаться на приём к врачу.

Больной подошел к регистратуре.



60. Kasallik (kasal bo'lish)

Болезнь (болеть)

Illness (to be ill)

«O» holatidagi o'ng kaft bir necha bor chap kaftning orqa tomoniga tekiziladi.

Sport bilan shug'ullangan odamlar deyarli kasal boimaydilar.

Кисть правой руки в конфигурации «о» несколько раз касается тыльной стороны левой руки.

Люди, занимающиеся спортом, редко болеют.



61. Gigiyena

Гигиена

Hygiene

“Sanitariya” va “toza” imo-ishoralari ko’rsatiladi.

Shaxsiy gigiyena – ko’p kasalliklarning oldini oladi.

Показываются жесты «санитария» и «чистый».

Личная гигиена предупреждает многие заболевания.

13

MAVZU

Oʻsimliklar olami

Растительный мир



1.O'rik

Абрикос (урюк)

Apricot (dried apricots)

«О» holatidagi kaft o'ng lunjning yonida aylanasiimon harakatlanadi.

O'rik sharbati - shifobaxsh ichimlik.

Кисть руки в конфигурации «о» вращается у правой щеки.

Абрикосовый напиток обладает целебными свойствами.



2. Ape!sin (mandarin)

Апельсин (мандарин)

Orange (tangerine)

«500» holatidagi chap kaftning ustidan pastga «a» holatidagi o'ng kaft po'stlog'ini olayotgandek harakatlanadi.

Gripp kasalligiga apelsin juda foydalidir.

Кисть левой руки в конфигурации «500», правой - в конфигурации «а» движется сверху-вниз над левой, словно снимая кожуру.

При гриппе очень полезен апельсин.



3. Tarvuz

Арбуз

Water-melon

«Г» holatidagi o'ng kaft «500» holatidagi chap kaftni bir necha bor chertadi.

Tarvuzlar mashinaga ortildi.

Кисть левой руки в конфигурации «500», правой - в конфигурации «р» несколько раз делает щелчки пальцем.

Арбузы были погружены в машину.



4. Baqlajon

Баклажан

Eggplant

«Ko'k» imo-ishorasi ko'rsatilib, ikki kaft baqlajon shaklini ko'rsatadi.

Nonushtaga baliqni baqlajon bilan dimladim.

Показывается жест «синий», а затем обеими руками обрисовывается форма баклажана.

На завтрак я потушила рыбу с баклажанами.



5. Вапан

Банан

Banana

Ngak holatidagi o'ng kaft «a» holatidagi chap kaftning ustidan pastga bananni tozalayotgandek yo'naltiriladi.

Banan — tropik meva.

Кисть левой руки в конфигурации «а», правой - в конфигурации «крючок» движется сверху вниз над левой рукой, имитируя очистку банана.

Банан — тропический плод.



6. Shox Ветка Branch

Kaftlarning ko'rsatkich barmoqlari galma-gal tepaga tomonlarga holatini o'zgartirmay yo'naltiriladi.

Guldonga momiqday nastarin shoxi solingan edi.

Кисти рук в конфигурации «указательный палец». Руки попеременно движутся вверх — в стороны, не меняя положения.

В вазе стояла пушистая ветка сирени.



7. Uzum Виноград Grapes

Chap kaft «o» holatida, o'ng kaftning «500» holatidagi barmoqlari siqilib, yozilib pastga yo'naltiriladi.

Uzum sharbati sog'lik uchun nihoyatda foydali.

Кисть левой руки в конфигурации «o», правой - в конфигурации «500» движется вниз, немного сжимая и разжимая пальцы.

Виноградный сок очень полезен для здоровья.



8. Olcha Вишня Cherry

«L» holatidagi kaftning bilagi bukilib, yelka yonida qimirlatiladi.

Bayramga olchali tort pishirildi.

Кисть левой руки в конфигурации «л» раскачивается в запястье у плеча.

К празднику испекли вишневый торт.



9. No'xot

Горох

Peas

Ko'rstakich barmoq ikki marotaba dahandan tepaga-oldinga yo'naltiriladi.

No'xotli palov nihoyatda mazali.

Указательный палец дважды движется от подбородка вверх-вперед.

Плов с горохом особенно вкусен.



10. Qo'ziqorin

Гриб

Mushroom

O'ng kaftning kattabarmog'ining uchi «f» holatidagi chap kaftga qo'yiladi.

Qo'ziqorinlarni onam qovurdilar.

Кончик большого пальца правой руки приставить к ладони левой руки, сложенной в конфигурацию «ф».

Мама пожарила грибы.



11. Nok
Груша
Pear

Ko'rsatkich va o'rta barmoqlar tutashib burundan, lunjdan zigzagsimon holatda yo'naltiriladi.

Vazada tomonlari qizil chiroyli noklar bor edi.

Кисть руки в конфигурации «я» зигзагообразно скользит от носа вниз по щеке.

В вазе лежали красивые краснобокие груши.



12. Daraxt
Дерево
Tree

«5» holatidagi o'ng kaftning tirsagi chap kaftga qo'yilib bilakda buriladi.

Yoqqan qordan daraxtlarning shoxlari egilib ketgan edi.

Правую руку с кистью в конфигурации «5» локтем поставить на ладонь левой кисти и поворачивать в запястье.

Ветви деревьев согнулись под тяжестью выпавшего снега.



13. Qovun
Дыня
Melon

«U» holatidagi kaft og'iz yonida o'ngdan-chapga yo'naltiriladi.

Biz shirin, mazali qovun yedik.

**Кисть руки в конфигурации «у» движется
справа налево у рта.**

Мы ели сочную сладкую дыню.



14. Archa

Ель

Fir-tree

**«5» holatidagi kaftlar pastga-tomonlarga barmoqlarini galma-
gal qimirlatib yo'naltiriladi.**

Archa tagidagi o't orasida tipratikanni ko'rdik.

**Кисти рук в конфигурации «5» движутся
вниз-в стороны, перебирая пальцами.**

Под елью в траве мы увидели ежа.



15. Karam

Капуста

Cabbage

**Kaftlar xiyol bukilib, o'ng kaft chap kaftning
oldida bir necha bor pastga yo'naltiriladi.**

Buvim karamni go'sht bilan dimladi.

**Кисти рук слегка согнуты. Правая рука
несколько раз опускается перед левой.**

Бабушка тушила капусту с мясом.



16. Kartoshka
Картофель
Potatoes

«X» holatidagi o'ng kaft chap ko'rsatkich barmoq yon tomonidan bir necha bor o'zimiz tomon sirg'aladi.

Kuzda kartoshka terimi boshlandi.

Кисть правой руки в конфигурации «х» несколько раз скользит по ребру левого указательного пальца к себе.

Осенью началась уборка картофеля.



17. Yirik
Крупный
Large

«Tomchi» holatidagi kaftlar bir vaqtda oldimizga-orqaga yo'naltiriladi.

Yomg'irning birinchi yirik tomchilari barglar ustiga tushdi.

Кисти рук в конфигурации «капля» движутся одновременно от себя- к себе.

Первые крупные капли дождя упали на листья.



18. Jo'xori
Кукуруза
Maize, corn

«a» holatidagi kaftlar bilaklarda bir vaqtda burilib oldinga - orqaga yo'naltiriladi.

Jo'xori poyasi qalin, baland bo'ladi.

Кисти рук в конфигурации «а», одновременно сгибаясь в запястье, наклоняются вперед-назад.

Стебли у кукурузы мощные и высокие.



19. Buta

Куст

Bush, shrub

Kaftlar «5» holatida bo'lib, o'ng kaft chap kaftdan tepaga-chetga sirg'aladi.

Darvoza yonida namatak butasi gullab turgan edi.

Кисти рук в конфигурации «5». Правая ладонь скользит вверх-в сторону по левой ладони.

У ворот цвел куст шиповника.



20. O'rmon

Лес

Forest, wood(s)

Kaftlar «5» holatida bilaklarda burilib bir vaqtda o'ngdan-chapga yo'naltiriladi.

Bo'ri qo'zichoqni qop-qorong'i o'rmonga sudrab ketdi.

Руки согнуты в локтях и поставлены рядом. Кисти рук в конфигурации «5». Руки одновременно движутся справа-налево, поворачиваясь в запястьях.

Волк утащил ягненка в темный лес.



21. Limon

Лимон

Lemon

«Sariq» imo-ishorasi ko'rsatilib, kaftlar mevaning shaklini ko'rsayotgandek ikki tomonga yo'naltiriladi.

Limonli choy shamollaganda darmon bo'ladi.

Показывается жест «желтый», затем кисти рук расходятся в стороны, описывая форму плода.

При простуде полезен чай с лимоном.



22. Barg, yaproq

Лист

Leaf

Kaftlar «o» holatida birlashib, o'ng kaft o'ng tomonga yo'naltirilib bargning shaklini ifodalaydi.

Kuzda daraxtlar barglarini to'kadi.

Кисти рук в конфигурации «о», соединены кончиками пальцев. Правая рука движется вправо, описывая форму листа.

Осенью деревья роняют листья.



23. Piyozi

Лук

Onion(s)

Kaft «ilgak» holatida lunjga yaqinlashadi, bilak bir necha bor buriladi.

Piyozi har xil kasallikka davo.

Кисть руки в конфигурации «крючок» поднести к щеке и несколько раз развернуть в запястье.

Лук от семи недуг.



24. Mayda
Мелкий
Small, fine

Kaftlar «tomchi» holatida bir vaqtda oldimizda aylanasiimon harakatlanib, tomonlarga yo'naltiriladi.

O'simlikning gullari mayda edi.

Кисти рук в конфигурации «капля» делают одновременно круговые движения и разводятся в стороны.

Цветки растения были мелкими.



25. Sabzi
Морковь
Carrot(s)

O'ng kaftning ko'rsatkich barmog'i bir necha bor chap ko'rsatkich barmoqning yon tomonidan oldinga sirg'aladi.

Bolalarga sabzi sharbatini tez-tez berish tavsiya etiladi.

Указательный палец правой руки несколько раз скользит по ребру левого указательного пальца вперед.

Детям рекомендуется часто давать морковный сок.



26. Sabzavotlar

Овощи

Vegetables

«Bodring» va «turli» imo-ishoralari ko'rsatiladi.
Bola sabzavotlarning rasmini chizdi.

Показываются жесты «огурец» и «разный».
Мальчик нарисовал овощи.



27. Poliz

Огород

Kitchen-garden, vegetable-garden

«v» holatidagi kaftlar bir vaqtda o'zimiz tomon yo'naltirilib
biroz o'ng tomonga siljib egatlarni ifodalaydi.
Sabzavotlar polizda o'sadi.

Кисти рук в конфигурации «в»
одновременно движутся к себе, несколько
перемещаясь вправо, изображая грядки.

Овощи растут на огороде.



28. Bodring

Огурец

Cucumber

«F» holatidagi kaftlar ichki tomoni bilan bir-
biriga ishqalanadi.

Xaltada bir nechta bodring va pomidor bor edi.

Кисти рук в конфигурации «ф», соединены
ладонными сторонами и трутся друг о друга.

В корзинке было несколько огурцов и
помидоров.



29. Yong'oq
Opex
Nut

O'rta barmoq lunjga tekkizilib, kaft dahanni xiyol tepaga itaradi.

Tog'larda yong'oqzorlar uchraydi.

Средним пальцем коснуться щеки, затем ладонью слегка толкнуть подбородок вверх. В горах встречаются ореховые леса.



30. Shaftoli
Персик
Peach

Chap kaft «500» holatida. «O» holatidagi o'ng kaft tepadan-pastga yo'naltirilib shaftolini tozalayotgandek harakatlanadi.

Shaftolining turli xillari kitobda tasvirlangan edi.

Кисть левой руки в конфигурации «500». Правая кисть в конфигурации «о» движется сверху-вниз над левой кистью, как бы очищая персик.

В книге были изображены различные виды персиков.



31. Pomidor

Помидор

Tomato

«500» holatidagi kaftlar galma-gal aylanasi-mon o'zimizdan oldinga-orqaga yo'naltiriladi.

Pomidor vitaminlarga boy sabzavot.

Кисти рук в конфигурации «500» движутся попеременно по кругу от себя к себе.

Помидор — богатый витаминами овощ.



32. O'simlik

Растение (расти)

Plant (to grow)

Kaftlar «5» holatida bo'lib, o'ng kaft chap kaftdan tepaga sirg'aladi.

Yozda biz shifobaxsh o'simliklarni terib quritdik.

Кисти рук в конфигурации «5». Правая ладонь скользит по левой ладони вверх.

Летом мы собирали и сушили лекарственные растения.



33. Rediska

Редис

(Red) radish

O'ng kaft barmoqlarining uchi chap kaftning ko'rsatkich barmog'ini ushlab, oldinga buriladi.

Rediska — ertapishar bahorgi sabzavot.

Правая рука кончиками пальцев обхватывает указательный палец левой руки и разворачивается в запястье от себя.

Редис — ранний весенний овощ.



34. Тигр

**Редька
(Black) radish**

O'ng kaft bir necha bor chap kaftning tepasidan-pastga yo'naltiriladi.

Asal va turp yo'talga davo.

Правая рука несколько раз скользит по левой ладони сверху-вниз.

Редька с медом помогает при кашле.



35. Bog'

**Сад
Garden**

«5» holatidagi qo'llarning tirsaklari bukilgan holatda, bir-biri tomori bilaklari buralib yoysimon shaklida yo'naltiriladi.

O'zbekistonning gullagan bog'lari naqadar go'zal.

Согнутые в локтях руки с кистями в конфигурации «5», движутся навстречу друг другу по дуге, вращаясь в запястьях.

Как прекрасны цветущие сады Узбекистана!



36. Lavlagi
Свекла
Beet, beetroot

«Qizil» imo-ishorasi ko'rsatilib, kaftlar «500» holatida barmoqlar uchlari bilan birlashadi, o'ng kaft o'ngga yo'naltirilib «j» holatiga keltiriladi.

Laviagi turli salatlarga solinadi.

Показывается жест «красный», затем кисти рук в конфигурации «500» соединить кончиками пальцев и отвести правую руку вправо, складывая пальцы в конфигурацию «ж».

Свеклу добавляют в различные салаты.



37. Poya
Стебель
Stem

«O» holatidagi kaftlar bir vaqtda, o'ng kaft - tepaga, chap kaft - pastga yo'naltiriladi.

Baland poyali gul.

Кисти рук в конфигурации «о» одновременно развести: правую — вверх, левую — вниз.

Цветок на высоком стебле.



38. O't
Трава
Grass

O'ng kaft chap kaftdan pastdan-tepaga tez-tez yo'naltirilib, barmoqlar ketma-ket qimirlaydi.

O'tlar ustida billur kabi shudring yaraqlardi.

Правая ладонь часто движется по левой ладони снизу-вверх, при этом кисти рук перебирают пальцами.

Роса на траве сверкала хрусталем.



39. Qovoq

Тыква

Pumpkin

**Kaftlar bilan qovoq shakli ko'rsatiladi.
Qovoq kuzda yetiladi.**

**Руками обрисовать форму тыквы.
Тыква поспевает осенью.**



40. Mevalar

Фрукты

Fruits

«500» holatidagi kaftlarning barmoqlarining uchi lunjdan quloqqa ikki marotaba sirg'aladi va turli imo-ishorasi ko'rsatiladi.

O'zbekiston — shirin-shakar mevalar o'lkasi.

Кисть руки в конфигурации «500» кончиками пальцев дважды скользит по щеке к уху, затем показывается жест «разный».

Узбекистан — край сладких фруктов.



41. Paxta

Хлопок

Cotton

Bukilgan kaftlar galma-gal oldinga-orqaga yo'naltiriladi. Orqaga yo'naltirilganda kaftlar «j» holatiga keltirila-di.

Paxta — oikamiz boyligi.

Согнутые кисти рук попеременно движутся от себя к себе. При движении к себе пальцы собираются в конфигурацию «ж».

Хлопок — богатство края.



42. Sarimsoq

Чеснок

Garlic

«Ilgak» holatdagi o'ng kaft chap ko'rsatkich barmoqning yon tomonidan bir necha bor sirg'aladi.

Gripp kasalligida sarimsoq nihoyatda foydali.

Кисть правой руки в конфигурации «крючок» несколько раз скользит по ребру левого указательного пальца.

При гриппе особенно полезен чеснок.



43 Gul

Цветок

Flower

«G'uncha» holatidagi kaft burunga yaqinlashtiriladi, barmoqlar yoziladi.

Paxta guli yirik, har xil rangli bo'ladi.

Кисть руки в конфигурации «е» поднести к носу и раскрыть пальцы.

Цветок хлопчатника крупный и разноцветный.



44. Olma

Яблоко

Apple

«500» holatidagi kaftning barmoqlarining uchi ikki marotaba lunjning tepasidan pastga sirg'aladi.

Daraxtda qizil olmalar ko'p edi.

Кисть руки в конфигурации «500» кончиками пальцев дважды скользит по щеке сверху-вниз.

На дереве было много красных яблок.



45. Meva

Ягода

Berry

Kaft «tomchi» holatida chapdan-o'ngga burama shaklida yo'naltiriladi.

O'simlikning mevalari mayda va nordon edi.

Кисть руки в конфигурации «капля» движется слева-направо по спирали.

Ягоды растения были мелкими и кислыми.



46. Olxo'ri

Слива

Plum

«Siyoh rang» imo-ishorasi ko'rsatilib, barmoqlari yozilgan, ancha bukilgan kaftlar bir vaqtda tomonlarga yo'naltirilib «j» holatiga keltiriladi.

Olxo'ridan murabbo pishirdim.

Показывается жест «фиолетовый», затем сильно согнутые кисти рук с раздвинутыми пальцами, одновременно разводятся в стороны, собирая пальцы в конфигурацию «ж».

Из сливы я сварила варенье.



47. Anog

Гранат

Pomegranate

«Qizil» imo-ishorasi ko'rsatilib, ko'rsatkich barmoqning uchi bir necha bor «a» holatidagi kaftning orqa tomoniga tekiziladi.

Anorning shifobaxsh xususi-yatlari ko'p.

Показывается жест «красный», затем правый указательный палец кончиком несколько раз касается тыльной стороны левой кисти, находящейся в конфигурации «а».

У граната много целебных свойств.



48. Anjir

Инжир

Fig

**Xiyol ixchamlashgan “s” holatidagi kaftlar
yoy shaklida bir-biri tomonga yo’naltiriladi.
Anjir yozning oxirida pishadi.**

**Кисть руки в конфигурации «с», только
слегка сужены, движутся навстречу друг
другу по дуге.
Инжир поспевает в концелета.**

14

MAVZU

Hayvonot olami

Животный мир



1. Kapalak **Бабочка** **Butterfly**

«V» holatidagi kaftlarning katta barmoqlari ulanib, qolganlari bir vaqtda oldinga o'zimiz tomon yo'naltiriladi.

Yozda dalada turli xil kapalaklarni ko'rish mumkin.

Кисти рук в конфигурации «в» сцепить большими пальцами, остальные пальцы одновременно движутся к себе — от себя.

Летом на поляне можно увидеть разнообразных бабочек.



2. Qo'chqor (qo'y) **Баран (овца)** **Ram (sheep)**

Chakka yonidagi ko'rsatkich barmoq bir necha bor aylanasiimon holatda oldinga, o'zimiz tomon yo'naltiriladi.

Qo'chqorning juni qora edi.

Указательный палец поднести к виску и сделать несколько круговых движений от себя — к себе.

Шерсть барана была черной.



3. Begemot **Бегемот** **Hippopotamus**

«500» holatidagi kaftlarning bilaklari birlashadi, o'ng kaft sekin ko'tarilib tushiriladi.

Afrika begemoti.

Кисти рук в конфигурации «500», соединить запястьями. Правая кисть медленно поднимается и опускается.

Африканский бегемот.



4. Buqa

Бык

Bull

Kaftning ko'rsatkich va jimjiloq barmoqlari yozilgan holatda peshanadan oldinga yo'naltiriladi.

Har yili an'anaviy buqalar jangi Ispaniya-da o'tkaziladi.

Кисть руки в конфигурации «ы» движется от лба вперед.

Каждый год в Испании проводятся традиционные бои быков.



5. Туя

Верблюд

Camel

«А» holatidagi kaftlarning bilaklari chillak shaklida birlashib pastga-tepaga yo'naltiriladi.

Tuya bir necha hafta sahroda suvsiz yurishi mumkin.

Кисти рук в конфигурации «а», соединенные крестом, одновременно сгибаясь в запястьях, движутся вниз-вверх. .

Верблюд может идти по пустыне несколько недель без воды.



6. Bo'ri

Волк

Wolf

«S» holatidagi kaft burunga yaqinlashtirilib oldinga yo'naltiriladi.

Ovchiga bo'rilar to'dasi uchradi.

Кисть руки в конфигурации «с» поднести к носу, затем отвести вперед.

Охотнику повстречалась стая волков.



7. Bit

Вошь

Louse

«Ilgak» holatidagi kaftlar yonma-yon qo'yilib, bilaklar bukilib, kaftlarning orqa tomoni tepaga qaratiladi.

Bit og'ir kasallik keltiradi.

Кисти рук в конфигурации «крючок» поставить рядом и, не меняя положения, развернуть их в запястье тыльной стороной вверх.

Вошь вызывает тяжелые заболевания.



8. In

Гнездо

Nest

Xiyol bukilgan kaftlar ikki tomonga bir vaqtda yo'naltiriladi.

Qushlarning inlarini buzish mumkin emas.

Слегка согнутые кисти рук одновременно развести в стороны.

Нельзя разорять гнёзда птиц.



9. G'oz

Гусь

Goose

«L» holatidagi kaft burunga yaqinlashtirib barmoqlarni 2-marotaba birlashtirib yozib yuborish.

Hovuzda g'ozlar suzayotgan edi.

Кисть руки в конфигурации «л» поднести к носу, пальцы дважды свести, развести.

Гуси плавали в пруду.



10. Deffin

Дельфин

Dolphin

«V» holatidagi o'ng kaft yoysimon holatda chap kaftning ustidan yo'naltiriladi.

Qora dengizda ajoyib jon zodlar — delfinlar yashaydi.

Кисть правой руки в конфигурации «в» движется по дуге через левую кисть.

В Черном море водятся замечательные существа — дельфины.



11. Hayvonning yangi tug'ilgan bolasi

Детёныш

Baby animal

«Kichkina» ishorasi va hayvon turi ko'rsatiladi. Sherning yonida yangi tug'ilgan bolasi bor edi.

Показывается жест «маленький» и вид животного.

Львица заботливо относится к своим детёнышам.



12. Tipratikan

Еж

Hedgehog

«4» holatidagi o'ng kaft chap kaftning yon tomoniga qo'yiladi, bilak o'zimiz tomon yo'naltiriladi. Harakat davomida kaftlar bir-biridan ajratilmaydi.

Yoikadan tipratikan chopib o'tdi.

Правую кисть в конфигурации «4» приложить к ребру левой кисти и развернуть в запястье к себе.

Ёж перебежал через тропинку.



13. Hayvon

Животное

Animal

«500» holatidagi kaft barmoqlarining uchi belning o'ng tomonidan 2-3 marotaba tepaga sirg'aladi.

Bolalar uy hayvonlarini nomlashdi.

Кисть руки в конфигурации «500» кончиками пальцев 2-3 раза скользит вверх справа около талии.

Дети перечислили домашних животных.



14. Jirafa

Жираф

Giraffe

Kaftlar «s» holatida. O'ng kaft chap kaftga qo'yilib tepaga yo'naltiriladi.

Afrikaning savannasida jirafalar yashaydi.

Кисти рук в конфигурации «с». Правую кисть поставить на левую и поднять вверх.

В африканских саваннах живут жирафы.



15. Qo'ng'iz

Жук

Beetle

«300» holatidagi kaftlarning katta barmoqlarining uclari yuzimizga qo'yilib, ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bir vaqtda bukilib yoziladi.

Bahorda buzoqboshi qo'ng'izlar paydo bo'ldi.

